

UNIVERSITETDA IQTIDORLI TALABALAR TOMONIDAN ISHLAB CHIQLIGAN LOYIHALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Universitet talabalarining loyihalarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Startup loyihalar mazmuni, o‘ziga xos jihatlari, tanlovlarga taqdim etish shartlari bo‘yicha muntazam ravishda seminar-treninglar tashkil etib kelinmoqda. Shuningdek, universitet talabalarining loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida universitetda turli tanlovlar muntazam ravishda tashkil etiladi.

2022-yilning 21-may kunda Toshkent shahar Yoshlar markazida “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovi yakuniy bosqichi taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi va unda Respublika bo‘yicha 100 nafar g‘olib taqdirlanib, shundan Buxorolik 10 nafar iste‘dodli yoshlarimiz Respublika bosqichi g‘olibiga aylandilar. Ularga BHMning 20 baravari (5 400 000 so‘m) miqdorida bir martalik pul mukofotlari topshirildi. Bundan tashqari, g‘oliblar “Iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash «Ulug‘bek» jamg‘armasi tomonidan tashkil etiladigan maqsadli o‘quv kurslarida bepul o‘qish imkoniyatiga ham ega bo‘lishdi. Buxorolik 10 nafar g‘oliblarning 5 nafari universitet talabalari hisoblanadi.

Toshkent shahar Yoshlar markazida bo‘lib o‘tgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovi

<https://telegra.ph/Mirzo-Ulugbek-vorislari-tanlovi-Respublika-bosqichida-Buxorolik-10-nafar-istedodli-yoshlarimiz-Respublika-bosqichi-golibiga-ayla-05-21>



2022-yilning 8-sentyabr kunda buxoro davlat universitetida isroilning ariel universiteti bilan hamkorlikda talabalarning innovatsion loyihalari tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Buxoro davlat universitetida Isroilning Ariel universiteti bilan hamkorlikda talabalarining innovatsion loyihalari tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda universitetning iqtidorli talabalari o‘zlarining innovatsion g‘oya hamda ishlanmalari bilan ishtirok etishdi. Loyihalar tanlov komissiyasi tomonidan loyihaning innovatsionligi, kreativlik-ijodkorlik darajasi, loyihaga bo‘lgan talabning mavjudlik darajasi hamda

amalga oshirish imkoniyatlari kabi mezonlari asosida baholandi. Tanov komissiya xulosasiga asosan:

-Xorijiy tillar fakulteti talabasi Xadichabonu Olimovaning “Bigway” loyihasi 1-o‘ringa;

- Tabiiy fanlar fakulteti talabasi Ferangiz Aslonovaning “Sianur kislotaning mochevina va tiomochevina almashingan hosilalarining antipiren xossalarini tadqiq qilish” loyihasi 2-o‘ringa;

- Fizika-matematika fakulteti talabasi Muxiddin Nekboyevning “STEM yo‘nalishida Arduino bazasiga asoslangan DIY (do it yourself) konstruktorlarini yaratish hamda ularni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish” loyihasi 3- o‘ringa munosib deb topildi.

Barcha ishtirokchilar sertifikat, esdalik sovg‘alar hamda universitet huzuridagi “Biznes akselerator”ga a‘zolik guvohnomalari bilan taqdirlanishdi. Tavlov yakunida ishtirokchilarga loyihalarni amalga oshirish, amaliyotga joriy qilish, investorlarga taqdim qilish hamda Isroillik tengdoshlari bilan hamkorlikdagi loyihalarni amalga yuzasidan fikrlar almashildi.

2022-yilning 8-sentyabr kunida universitetining “Biznes akselerator” markazida Isroilning Ariel universiteti bilan hamkorlikda bo‘lib o‘tgan innovatsion loyihalari tanlovi

(<https://te.legra.ph/BUXORO-DAVLAT-UNIVERSITETIDA-ISROILNING-ARIEL-UNIVERSITETI-BILAN-HAMKORLIKDA-TALABALARNING-INNOVATSION-LOYIHALARI-TANLOVI-BOLIB-O-09-08>)



2022-yilning 13-dekabr kunida Buxoro davlat unversiteti huzuridagi “Business accelerator” da universitet talabalari o‘rtasida innovatsion loyihalar tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovda universitetning 30 dan ortiq talabalari o‘zlarining innovatsion loyihalari bilan ishtirok etishdi. Loyihalar tanlov komissiyasi tomonidan loyihaning innovatsionligi, kreativlik-ijodkorlik darajasi, loyihaga bo‘lgan talabning mavjudlik darajasi hamda amalga oshirish imkoniyatlari kabi mezonlari asosida baholandi. Tanlov komissiya xulosasiga asosan jami 6 ta loyiha g‘olib deb topildi. Xususan:

- Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi Xojiakbar Xudoyberdiyevning “QCTS (QR Code on Traffic Signs)” loyihasi hamda Axborot texnologiyalari talabasi Muxiddin Nekboyevning “PanelClean” – “Quyosh panellarini avtomatik tozalash tizimi” loyihasi 1-o‘ringa;

- Axborot texnologiyalari fakulteti talabari Umedjon Saidovning “ImageToText” loyihasi hamda Bobir Samadovning “Xalqaro konferensiyalarni avtomatlashtirish tizimi” loyihasi 2-o‘ringa;

- Tabiiy fanlar fakulteti talabari Ferangiz Aslonovanning “Tarkibida N,S,P-saqlagan antipiren vositalar sintezi va qo‘llanilishi” loyihasi hamda Shahnoza Rajabovanning “Behi mevasi urug‘laridan shilliq moddalar ajratib olish hamda undan yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishi kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan preparatlar tayyorlash” loyihasi 3-o‘ringa munosib deb topildi.

Tanlov g‘oliblari mos ravishda 1-o‘rin uchun 3 mln. so‘m, 2-o‘rin uchun 2 mln. so‘m, 3-o‘rin uchun 1 mln. so‘m pul mukofoti bilan taqdirlanishdi.

Shuningdek, barcha ishtirokchilar faol ishtiroklari uchun sertifikatlar bilan taqdirlanishdi. Tavlov yakunida ishtirokchilar tomonidan loyihalarni amalga oshirish, amaliyotga joriy qilish, investorlarga taqdim qilish yuzasidan fikrlar almashildi. Barcha loyihalar Buxoro viloyati Innovatsion rivojlanish hududiy boshqarmasi taqdim etildi.

2022-yilning yilning 13-dekabr kunida Buxoro davlat unversiteti huzuridagi “Business accelerator” da universitet talabari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan innovatsion loyihalar tanlovi (<https://buxdu.uz/yangiliklar/5077/5077-buxoro-davlat-universitetida-innovatsion-loyihalar-tanlovi-bolib-otdi/>)

